


NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



NAMANGAN VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2024- YIL YANVAR-OKTABR (DASTLABKI MA'LUMOT)




Tel.: 69-211-72-00
www.namstat.uz

Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

2024-yil yanvar-oktabr oylarida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida Namangan viloyati korxonalari tomonidan 24 370,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 108,3 % ni tashkil etdi.

yanvar-oktabr
mlrd. so'mda



B

Tog'-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash

C

Ishlab chiqarish
sanoati

D


Elektr, gaz bug' bilan
ta'minlash va havoni
konditsiyalash

E


Suv bilan ta'minlash,
kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 81,5 % ni tashkil etdi.

yanvar-oktabr
FHI, % da




yanvar-oktabr
ulushi, % da



2024- yil yanvar-oktabr oylarida

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 118,9 % ni tashkil etmoqda.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 100,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat

2024- yil yanvar-oktabr oylarida



2024- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 19 852,4 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 81,5 % ini tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,0 % ni (2023- yilning yanvar-oktabr oylarida – 1,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 7,5 % (8,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 16,6 % (13,0 %) va quyi texnologiyalisi – 74,8 % (77,1 %) ni tashkil etdi.



2024- yil yanvar-oktabr oylarida

Jami sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim ishlab chiqarishning ulushi 12,5 % (2023-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 125,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 16,6 % (2023-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 95,4 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 3,9 % (2023-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 137,8 %), asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 0,8 % (2023-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 86,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 1,9 % (2023-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 80,5 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari



2024- yil yanvar-oktabr oylarida




2024-yilning yanvar-oktabr oylari davomida jami sanoatda 24,4 ming tonna bug'doy uni ishlab chiqarilgan bo'lib, (2023-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 88,0 % ga kamaygan), 13,8 ming tonna paxta tolasi (152,0 % ga yetdi), 9,5 ming. tonna omuxta yem mahsulotlari (65,7 % ga kamaygan) hamda 21,1 ming tonna paxta chigiti (121,3 % ga yetdi) ishlab chiqarilgan.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-oktabr	2024- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Omuxta yem, ming tonna	28,6	10,5	-18,1
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	37,6	28,1	-9,5
Paxta tolasi, ming tonna	19,1	19,5	0,4
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t	6,5	8,0	1,5

Metallurgiya sanoati

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida jami sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 0,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 26,9 % bo'lgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga, metallurgiya sanoatining ulushi 2,8 % ga teng bo'lib, fizik hajm indeksi esa, 108,7 % ga ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 684,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Jami sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 1 057,5 mlrd so'mni yoki jami sanoat hajmining 5,5 % ni tashkil etgan, 2024-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 1 330,7 mlrd so'mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 6,5 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish


Jami sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 3 312,7 mlrd so'mni, joriy 2024-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 4 046,2 mlrd so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 733,8 mlrd so'mga ortgan.



2024- yil yanvar-oktabr oylarida

Ichimliklar ishlab chiqarish


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 682,4 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 1 108,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 426,4 mlrd. so'mga ko'paygan va jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 4,5 % ni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish


2023-yilning yanvar-oktabr oylarida jami sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 25,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 103,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 106,2 % ga teng bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 5 026,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, ja'mi ishlab chiqariladigan sanoat tarkibida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ulushi 11,2 % ni, ya'ni jami 2 052,2 mlrd so'mni tashkil etgan, 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 12,5 % ni tashkil etib, 3 047,7 mlrd. so'mga tengdir. Namangan viloyatida kiyim ishlab chiqarish o'tgan 2023-yilning mos davriga nisbatan 995,4 mlrd. so'mga oshgan.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 562,4 mlrd. so'mni, jami sanoatdagi ulushi 3,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida Namangan viloyati bo'yicha 465,7 mlrd. so'mlik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami sanoatdagi ulushi 1,9 % ni, tashkil etdi.

2023-yil**102,0 %****2024-yil****80,5 %****Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish**

2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 12,8 mlrd. so'mni tashkil etib jami sanoatining 0,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 0,3 mlrd. so'mga kamayib, 12,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yil**93,9 %****2024-yil****75,3 %****Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish**

2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar jami sanoatdagi hajmi 502,9 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilga nisbatan 14,4 mlrd. so'mga kamaygan va 488,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.


2023-yil**126,9 %****2024-yil****87,3 %**

2024- yil yanvar-oktabr oylarida

Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2024-yil yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4 098,5 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 16,9 % ini) tashkil etadi.

2024-yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1 312,5 mlrd so'mga ko'payganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-oktabr	2024- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	5 735,7	5 367,7	-368,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	46,0	71,5	25,5

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 320,0 mlrd so'mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 1,3 %ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-oktabr	2024- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar - mlrd so'm	104,3	129,5	24,7
Shahar xo'jaliklarning qayta foydalanishga yaroqsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	29,5	54,4	24,9


O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar 24,7 mlrd. so'm yoki 7,2 % ga kamayganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'rnalarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 24,9 mlrd. so'mga ko'payganligi kuzatildi.

2024- yil yanvar-oktabr holatiga ko'ra

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3 828,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 17,3 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da.



Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da (2024- yil yanvar-oktabr)

